

NOYADROVIY TOBE ($\bar{N}D$) KOMPONENT O'RNIDA KELGAN TEMPORALLIK

M.Oblokulova¹, G.F.Boltakulova²

Annotatsiya:

Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida noyadroviy (ND) komponent o'rnida kelgan temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: temporallik, sintaktik birlik, subordinativ aloqa, komponent, predikativ aloqa.

doi: <https://doi.org/10.2024/p859no16>

Temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar ingliz va o'zbek tillari misolida asosan subordinativ aloqa asosida bog'lanadi. Subordinativ aloqa gap tarkibida tobe komponentlarni yadro komponentlar bilan bog'lab keladi. Ushbu sintaktik aloqa har qanday gap qurilmalarida eng ko'p qo'llaniladigan sintaktik aloqadir.

Yuqorida qayd qilganimizdek, yadro predikativ aloqa asosida differensial sintaktik belgilardan yadro komponentlar (NP₁, NP₂) aniqlansa, subordinativ aloqa bazasida noyadroviy tobe komponentlar ($\bar{N}D$) aniqlanadi. Demak, yaxlit subordinativ aloqa asosida ishtirok etgan komponentlar gapning struktur asosini ifodalamay, o'zi alohida tugal fikrni anglatmaydi, u gap tarkibidagi yadro komponentlarga tobelikni ifodalab, gap qurilmasidan tobe komponentlarni tushirib qoldirish mumkin. Yunksion modelda subordinativ aloqa (yoki) bir chiziq, tayanch komponentga nisbatan yo'naltirilgan belgi bilan ifodalanadi.

Ta'kidlash joizki, subordinativ munosabatda bo'lgan birikmada shu birikmaning vazifasi bevosita ishtirokchilardan bittasining vazifasi bilan bog'liq bo'ladi. O'z-o'zidan ma'lumki, subordinativ aloqa so'z birikmalari tarkibida hokim va tobe komponentni bir – biridan farqlashga xizmat qiladi.


Tobe komponent o'rnida kelgan temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar sodda gaplar tarkibida ingliz tili misolida yadro predikativ 2 komponentiga subordinativ aloqa asosida bog'lanib, gapning oxirida, o'rtasida yoki boshida kelishi mumkin.

1. The battle began at six (MSH, 236);
2. She had already whimpered (RP, 301);
3. Then the preacher went on (RP, 309);
4. After dinner they were hungry (MSH, 388).

Ushbu gaplar komponentlarga ajratib tahlil qilinsa, temporallikni ifodalovchi noyadroviy tobe komponentlar at six (1) began bilan, already (2) had whimpered bilan, then (3) went on bilan, after dinner (6) were hungry bilan subordinativ aloqa asosida bog'langanligi ma'lum bo'ladi. Mazkur gapning (1) yunksion va komponent modeli quyidagicha:

¹ M.M.Oblokulova, SamDChTI Ingliz filologiyasi kafedrasida dotsenti


² G.F.Boltakulova, SamDChTI v.v.b.professori

yum.1, NP1. NP2. $\bar{N}D$ km.1.

- (1) The battle began at six. $\frac{NP1}{S} + \frac{NP2}{Vf} + \frac{\bar{N}D}{PrN}$;


Ikkinchi gapning yunksion va komponent modellari bundan farq qiladi, chunki payt holi gapning yadro predikativ 1 (NP1) va yadro predikativ 2 (NP2) komponentlari o'rtasida joylashgan.

- (2) She had already whimpered.




Qolgan uchinchi va to'rtinchi gaplarda esa, payt holini ifodalovchi sintaktik birliklar gapning boshida kelgan, ularning yunksion va komponent modellari yuqorida qayd etilgan gaplarning modellaridan farq qiladi:

- (3) Then the preacher went on.



- (4) After dinner they were hungry.



yu.m.3.

Ammo ularning komponent modellari bir xil bo'lsa ham, morfologik ifodasida farq mavjud:

- (3) Then the preacher went on. $\frac{\bar{N}D}{Adv} + \frac{NP1}{S} + \frac{NP2}{Vf}$;

- (4) After dinner they were hungry. $\frac{\bar{N}D}{PrS} + \frac{NP1}{Pnp} + \frac{NP2}{cA}$;

Ingliz tilining uch komponentli gaplari o'zbek tili bilan qiyoslanganda, ingliz gaplarida so'z tartibi SVO bo'lsa, o'zbek tilida SOVekanligi tufayli, o'zbek tili gap tarkibida payt holini ifodalovchi sintaktik birliklar asosan gap boshida yoki yadro predikativ 1 va yadro predikativ 2 komponentlari o'rtasida uchraydi. Ammo yadro predikativ 2 komponentdan keyin uchramaydi, bunday gaplarda gapning egasi eksplitsit tarzda ifodalanmaydi, ega kontekstda kesimga qo'shilgan shaxs qo'shimchasi yordamida anglashiladi.

Qiyoslang:


1. *Biz juma kuni etib keldik* (EH, 104);
2. *Uchrashuv 20 iyun kuni bo'lib o'tdi* (EH, 66);
3. *Avval yashagandim* (EH, 88);
4. *Payshanbada etib boraman* (EH, 105);
5. *Ertasiga Pedro qatnashmadi* (EH, 142);
6. *Bugun ish topildi* (SB, 32).

Birinchi va ikkinchi gaplarda payt holi ega va kesim o'rtasida juma kuni, 20 iyun kuni birliklari yadro predikativ 2 komponentlariga (etib keldim, bo'lib o'tdi) subordinativ aloqa asosida bog'langan. Ushbu gaplarda yadro komponentlarni aniqlash maqsadida tobe komponentlarni tushirib qoldirish mumkin, lekin gapning umumiy mazmuni saqlanadi, payt holini ifodalovchi tobe komponentlar voqea – hodisaning sodir bo'lgan vaqtini ifodalaydi, xolos.

- (1) *Biz juma kuni etib keldik* → *Biz etib keldik*;

- (2) *Uchrashuv 20 iyun kuni bo'lib o'tdi* → *Uchrashuv... .. bo'lib o'tdi*.

Bu gaplarning yunksion va differensial sintaktik belgilari bir xil, ammo morfologik ifodalanishi farq qiladi.



yu.m. 4.

$$(1) \frac{NP1}{Pnp} + \frac{\bar{N}D}{S} + \frac{NP2}{Vf};$$

$$(2) \frac{NP1}{S} + \frac{\bar{N}D}{nuS*S} + \frac{NP2}{Vf};$$

Shuningdek, ayrim payt holi ishtirok etgan gaplarda yadro predikativ 1 (NP1) komponenti eksplitsit tarzda ifodalanmagan. Real yadro predikativ 1 komponentini aniqlash maqsadida eksperiment metodining tiklash usulidan foydalanish maqsadga molikdir:


(3) *Avval yashagandim* → *Men avval yashagandim yoki avval men yashagandim*;

(4) *Payshanbada etib boraman* → *Men payshanbada etib boraman yoki payshanbada men etib boraman*.

Bunday gaplarni M. R. Jolibekova egasi ifodalanmagan to'liqsiz gaplar deb ta'kidlaydi.

Ushbu gaplarda gapning yadro predikativ 1 komponentini tiklashda payt holini ifodalovchi sintaktik birliklardan oldin qo'yish yoki keyin qo'yishning gap qurilmasiga ta'siri bo'lmaydi, ammo muloqot jarayonida so'zlovchining aytiladigan nutqqa bo'lgan munosabatiga bog'liq.

Bu gaplarning yunksion modeli bir xil:




yu.m. 5. Yunksion modelda --- belgi gap tarkibida tiklangan sintaktik birlikni ifodalaydi. Ularning komponent modellarini quyidagicha izohlash mumkin:

(3) *Men avval yashaganman* $\frac{NP1}{Pnp} + \frac{\bar{N}D}{Adv} + \frac{NP2}{Vf}$;

(4) *Men payshanbada etib boraman* $\frac{NP1}{Pnp} + \frac{\bar{N}D}{S+da} + \frac{NP2}{Vf}$;

Beshinchi va oltinchi gaplarda payt holini ifodalovchi sintaktik birliklar gap tarkibida yadro predikativ 1 komponentdan oldin kelgan. Bu gaplarning yunksion va komponent modellarini quyidagicha izohlash mumkin:



yu. m. 6. $\frac{\bar{N}D}{Adv} + \frac{NP1}{S} + \frac{NP2}{Vf}$;

Ingliz va o'zbek tillari gap qurilmasida noyadroviy tobe komponent o'rnida kelgan temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklarni komponentlarga ajratib tahlil qilish natijasida noyadroviy tobe komponent har ikkala tilda ham gap qurilmasida gapning boshida va yadro predikativ 1 hamda yadro predikativ 2 komponentlari o'rtasida kelishi mumkin. Ammo ingliz tili gap qurilmasida temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar yadro predikativ 2 komponentidan keyin kelishi mumkin, bunday hodisa o'zbek tili gap qurilmasiga xos emas. O'zbek tili gap qurilmasining ingliz tili gap qurilmasidan yana bir farqi temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar bilan yadro predikativ 2 komponenti orqali yadro predikativ 1, ya'ni egasiz ifodalanishida namoyon bo'ladi. Bunday hollarda ushbu gapning kesimidagi shaxsni ifodalovchi qo'shimchalar yordamida gapning egasini tiklash mumkin. Bunday holat esa ingliz tili gap qurilmasida uchramaydi.

Umuman olganda, temporallikni ifodalovchi sintaktik birliklar noyadroviy tobe komponent o'rnida kelganda gap tarkibida qaysi holatda ifodalanmasin, ular subordinativ aloqa asosida yadro predikativ 2 komponentiga bog'lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. T.: O'qituvchi, 1987 -256 b.
- [2]. Jolibekova M.R. Tipologiya nepolnix predlojeniy dialogicheskoy rechi v raznosistemnix yazikax (na materiale angliyskogo i karakalpaksogo yazikov) Avtor. diss... kand. filol. nauk. T.: 2008.-22s.
- [3]. Muxin A.M. Struktura predlojeniy i ix modeli. L.: Leningrad. otd.: Nauka, 1968.-230 s.
- [4]. Usmonov O'. Gap tahliliga yangicha yondashuv//Xalqaro ilmiy anjuman materiallari. SamDCHTning 10 yilligiga bag'ishlanadi. -Samarqand: SamDCHTI, Samarqand. -2004. -B.105-107.